

RABG'UZIYNING "QISSASI RABG'UZIY" ASARIDA HIKOYATLAR POETIKASI

Kadirova Saida Maxsudovna

Qoraqalpoq Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Quyidagi tezis Rabg'uziy ijodiga bag'ishlangan bo'lib, uning "Qissasi Rabg'uziy" nomli asaridagi hikoyatlarni poetik jihatdan tahlil qiladi.

Tayanch so'zlar: Qissasi rabg'uziy, hikoyat, ma'no, komillik, poetik ifodalar.

Поэтика рассказов в "Киссаси Рабгузи" Рабгузи

Кадырова Саида Максудовна

Магистр Каракалпакского государственного университета

Аннотация: Следующий тезис посвящен творчеству Рабгузи, поэтическому анализу рассказов в его произведении «Киссаси Рабгузи».

Ключевые слова: повествование, смысл, совершенство, поэтические выражения.

Rabg'uziy hayoti va ijodi haqida bizgacha juda kam ma'lumot yetib kelgan. U XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyida yashab ijod etgan. "Qissasi Rabg'uziy" asarida u o'zi haqida musulmonlarga xos kamtarinlik bilan "...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqliq, ko'p yozuqliq Raboti o'g'uz qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin..." deb yozadi.

Rabg'uziyning qissalari ma'nosini anglatuvchi "Qissasi Rabg'uziy" asari olam va odamning yaratilishi, insonning yo'ldan og'ishi va komillik sari mashaqqatli va uzoq yo'l bosib borayotganligi haqida g'oyat mantiqli va qiziqarli tarzda hikoya qilinadi va qadr jihatdan badiiy asarlar orasida o'zining yuksak o'rniga ega.

Ushbu asar musulmon dinini qabul qilgan e'tiborli mo'g'ul beklaridan biri Nosiruddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra, hijriy 109 (milodiy 1309 - 1310) yilda yozilgan. Nosiriddin To'qbo'g'a adibdan "*o'qimoqg'a keraklik, o'granmakka yarog'liq*" payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishini so'ragan edi.

Mazkur vazifani ulkan salohiyat, katta mahorat bilan uddalagan adibning asari "Qissasi Rabg'uziy", "Qisas ul-anbiyoi turkiy" nomi bilan shuhrat topdi va yaratilgandan to bugungi kungacha sevilib o'qib kelinmoqda. Bunga asosiy sabab esa bu asarning poetik jihatdan mukammal tuzilganligi hisoblanadi.

Rabg'uziyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an'anasidagi o'ziga xos bosqich bo'ldi. Birinchidan, adib o'zigacha yaratilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarni puxta o'rgandi, umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salafлари yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi. Uchinchidan, oldinlari nabiylar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Rabg'uziyning turkiy tilda yozishga jazm qildi.

Unda XIII asr oxiri - XIV asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o'ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo'lgan.

Halollikka, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Rabg'uziyning hikoyalarining asosiy maqsadidir. O'zbek nasrida ilk marotaba dialoglar Rabg'uziy tomonidan keng tarzda qo'llangan. Ana shu dialoglar vositasida asosiy g'oyaviy maqsad yorqin va ta'sirchan ifodalangan va poetik ifodalar ham aynan diologlar shaklida kelganda o'quvchiga oson va tushunilishi oson bo'lgan.

Nosiriddin Burxoniddin Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy" asarining eng qadimgi qo'lyozmasi Londondagi "Britaniya" muzeyida saqlanadi.

"Qissasi Rabg'uziy" – turkiy nasrning eng qadimiy namunalaridan biridir. Unda XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o'ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo'lgan. Payg'ambarlar haqidagi qissalar Rabg'uziyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo'lgan. Qissalar asosini tarixiy-ilohiy voqealar tashkil etadi. Ular o'z ildizlari bilan Qur'on va hadislarga, insoniyatning yaratilishi va rivojlanish tarixiga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning ko'pchiligi, birinchi navbatda, Rabg'uziy badiiy tafakkuri yordamida qayta idrok etiladi, badiiy talqinini topadi. Mavzu doirasiga ko'ra asardagi qissalar juda rang-barang. Olamdagi butun mavjudod egasi Ollohni ulug'lash, payg'ambarlar hayotiga doir

lavhalarni eslash, ota-ona va farzand munosabatlari, sevgi va sadoqat, vatan va vatanparvarlik, erk va adolat, do'stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabi mavzular shular jumlasidandir. Bular asardagi yetmish ikki qissada o'z ifodasini topgan. Bu qissalarni hajmi turlicha. Masalan, "*Qissai Yusuf*" salkam yuz sahifani tashkil qilsa, "*Lut*" haqidagi qissa bir necha sahifadagina iborat.

Qissalarning ko'pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so'ng sheriylar madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Bazi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqlar ham bor. Masalan, Yusuf qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g'azal va boshqa janr namunalari uchraydi. Ammo ular asarda olg'a surilgan asosiy g'oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi.

Halollik, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash Rabg'uziyning hikoyalarining asosiy maqsadidir.

Hikoyalarni poetik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ularda xalq og'zaki ijodining tasiri ham yorqin seziladi. Xususan, latifa janriga xos belgilar hikoyaga ko'chib o'tgan. Suhbatning dialog asosida olib borilishi, soddalik, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarining ustuvorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo'ndaligi, og'zaki ijoddan tasirlanish natijasidir.

Milodiy 1309–1310 yillarda yozilgan "Qisasi Rabg'uziy" asarini kitobat olamining go'zal, betakror bir obidasiga qiyos etilishi ham bejiz emas. Yozma yodgorlikda Odam Ato va Momo Havodan tortib, Muhammad Mustafogacha yashab o'tgan payg'ambarlarning hayoti, ezgu o'yu amallari hikmatlar, rivoyatlar orqali mohirona aks ettirilgan. Unda Sharq falsafasi bilan qadimiy milliy qadriyatlarimiz uyg'unlashib ketgan.

Qadimiy turkiy tilni o'zida ifoda etgan bebaho durdona ikki kitobdan iboratdir. Sobiq sovetlar davrida hayoti va ijodi o'rganilishi taqiqlangan allomaning ushbu asari Mustaqillik sharofati va tariximizga munosabat o'zgarganligi tufayli darsliklardan o'rin oldi. Masalan, 9-sinf adabiyoti majmuasiga Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning mashhur asarlaridan namunalar kiritilgani buning isbotidir. "Qisasi Rabg'uziy" asari o'zbek nasriy adabiyotining birinchi yirik namunasidir.

El orasida qadimdan mashhur bo'lgan bu asar "*Payg'ambarlar qissasi*" yoki "*Avliyolar qissasi*" deb ham yuritiladi. Zero, asarda Odam Atodan boshlanib, Muhammad alayhissalomgacha o'tgan barcha payg'ambarlar haqida zikr etiladi. Kitobda afsonaviy payg'ambarlar bilan birga payg'ambarlashtirilgan shaxslarga, jumladan, *Luqmoni hakim*, *Iskandar Zulqarnaynga* ham katta o'rin berilgan.

Nosiruddin Rabg'uziy asarni deyarli bir yillik tinimsiz mehnatdan so'ng hijriy 710 yilning Hut (melodiy 1310 yil 21 fevral-21mart) oyida nihoyasiga yetkazadi. Bu haqida qo'lyozmaning so'zboshisida ya'ni, Rabg'uziyning o'zi tomonidan yozilgan birinchi kitobdagi muqaddimada keng qamrovli sharh berilgan.

Shuningdek, muallif ikkinchi kitobning she'riy xulosasida ham uni qachon yozganligini ifoda etadi. "O'zgalar dunyo lazzati deb, qimmatbaho toshlardan mol dunyo yiqqanida, xushmanzara joylarda ko'ngil ochib yurganida men so'zdan gavharu dur tuzdim", deb bashorat qiladi. Darhaqiqat, ushbu kitob o'lmas ganjina bo'lib, asrlardan asrlarga, xalqlar tilidan o'zga xalqlar tiliga o'tib kelyapti. Rabg'uziy uni shunday ifoda etadi:

O'zgalar ko'p olamunchoq tuzdilar el tizginib,

Man guvar, dur, yinju tuzdim, kezmadim yobon yozi.

Yetti yuz o'n erdi yilg'akim bitildi bu kitob,

Tug'mish erdi ul o'g'urda Hut saodat yulduzi.

Darhaqiqat, allomaning o'zi aytganidek, asarni duru gavharga qiyos etsak bo'ladi. Ayni paytda bu kitobni butun jahon ahli o'qib o'rganayotganligi buni tasdiqlaydi. Ushbu nusxa mashhur matnshunos K. Gronbek tomonidan 1948 yili Kopengagenda ham nashr qilingan. Qizig'i shundan iboratki, bizning kitobxonlarimizga o'qish ta'qiqlangan kitob, o'sha davrda Yevropada keng tarqalgan va qiziqish bilan o'qilgan. Rabg'uziy asarining qo'lyozma nusxalaridan eng mo'tabarlaridan yana biri Rossiya Sharqshunoslik institutining Sank-Peterburg bo'limida S-245 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxasi bo'lib, u XV yoki XVI asrda ko'chirilgan deb taxmin qilinadi. "Qisasi Rabg'uziy"ning boshqa nusxalari keyingi davrlarda ko'chirilgan bo'lib, ularning leksikasi vaqt taqozosiga

ko‘ra o‘zgarib borgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yodgorlik *Toshkent*, Qozon shaharlarida litografiya asosida bir necha marta nashr qilingan. Asarning to‘la matnli ilk marta rus turkshunos olimi N. I. Ilminskiy tomonidan 1859 yili Qozon shahrida e‘lon qilingan. Bu nashr nisbatan keyinroq ko‘chirilgan nusxaga asoslangan bo‘lib, til jihatdan asl nusxadan ancha farq qiladi.

Ayniqsa, ushbu asar milliy kitobatimiz tarixining durdonasi ekanligi bilan ham katta ahamiyatga ega.

Nosiruddin Burxonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari Mustaqilligimiz sharofati va bir guruh olimlarimizning sa’y-harakati bilan kitob javonlarimizdan o‘rin oldi. Oyatlar, hadislar, arabiy she‘rlarni hozirgi o‘zbek tiliga filologiya fanlari nomzodi Yusufxon Shokirov tarjima qilgan. Biroq, ushbu asarning tili juda murakkab bo‘lib, bugungi kitobxonning tushinishi juda qiyin. Shuning uchun ushbu kitobni qadimiy turkiy tildan bugungi zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girib, barcha kitobxonga tushunarli bo‘lishiga intildik. Zero, oradan yetti asrlik davr o‘tgan. Turkiy adabiy tillar, turkiy tilda bunyod etilgan yozma manbalar shakllanish va rivojlanishning murakkab bosqichlarini bosib o‘tgan. Undagi insonlarni bir-birlariga jabr – zulm qilmay, nohaq qon to‘kmay, harom – xarish ishlarga berilmay, sharm-hayoni e‘zozlab yashashga undovchi o‘g‘it va hikmatlari navro‘zi olam kabi bugungi kunda ham o‘z mohiyatini yo‘qotgan emas. Asarda e‘tiqod va iymonga sodiqlik, pok axloqning hirsu hasad, qonxo‘rlik, badnafslilik ustidan g‘alabasi tasvirlanadi. Qadimiy turkiy so‘z san’atining go‘zal va g‘aroyib obidasida payg‘ambarlar hayoti Sharqning donishmandligi ila go‘zal afsona va rivoyatlar orqali aks etgan. Masalan, Rabg‘uziy Ilyos payg‘ambarning hayotini tasvirlaganida shunday suhbatni keltiradi: *Sen Jalil tog‘ida turgan Ilyosmisan? – so‘radi Armala. Bale, – javob qildi Ilyos. Men sen aytayotgan so‘z uchun uch yuz yetmish payg‘ambarni o‘ldirdim. Ularning yetakchisi sensan. Men seni o‘ldi deb hisoblayman. Sen o‘z oyoqing bilan o‘limga kelding.* Demak, Rabg‘uziy o‘z asarida ta’kidlashicha, Ilyos payg‘ambar bilan zamondosh uch yuz yetmish payg‘ambar bo‘lgan.

Bu ikkala kitobda yigirma to‘qqiz nafar payg‘ambar va tarixiy shaxslar haqida alohida qissalar mavjud bo‘lib, ularning hayoti, faoliyati hadislar, sharqona rivoyatu hikmatlar orqali juda qiziqarli ifoda etilgan. Qur‘oni karimdan oyatlar keltirilishi asarning qadri va qiymatini oshirgan. Ikkinchi kitobning o‘zida yetti yuzga yaqin oyatu hadislardan misollar keltiriladi. Shuningdek, rivoyatlar va hikmatlar orqali farishtalar bilan parilarning, obidlar bilan zohidlarning farqi nimadaligi, Ya‘juj bilan Ma‘juj haqidagi axborotlar asosli va g‘oyat go‘zal ifodasini topgan. Mis, simob, temir, oltin kabi kimyoviy elementlarning kashf etilishi, ishlatilishi ham ushbu soha egalarini, kimyogarlarni qiziqtirishi tabiiy. Kimyoviy elementlarning kitobdagi ifodasi ota-bobolarimiz azal-azaldan ilm-u fanga juda qiziqqanligini o‘zida aks ettiradi. Tabiiyki, asar tilida mavjud bo‘lgan so‘zlarning ayrimlari bugungi kitobxon uchun tushunarsiz. Vaqt o‘tishi, turli ijtimoiy-siyosiy voqealarning sodir bo‘lishi natijasida turkiydagi ba‘zi so‘zlar o‘z umrini yashab bo‘lgan va iste‘moldan chiqib ketgan. Masalan: ud, uy-sigir; to‘ra – qonun-qoida; uv – uy, joy kabi so‘zlar. Shu bilan bir qatorda hayot sinovlariga bardosh bergan va bugungi kunda ham tilimizda faol qo‘llanilayotgan juda ko‘p so‘zlar Rabg‘uziy yozib qoldirgan bebaho durdonaning har bir satrida uchraydi. Masalan, *tishi-xotin* so‘zi respublikamizdagi ba‘zi viloyatlarning shevasida hali ham ishlatiladi. *Tangmoq-o‘ramoq; navmid-umidsiz, noumid; iya-ega, sohib; xarbuz-tarvuz; chanoq-yog‘och idish, tovoq; og‘-to‘r, tuzoq; daf(dap)-doira; sichak (secha) – chumchuk; ovuch-kaft, hovuch; kirpich – g‘isht; ashoq-past; avlo-yaxshiroq, afzalroq; kezik(gazik)-navbat; qo‘ndog‘lab-yo‘rgaklab; yurtug‘ (yirtiq kiyim – kechak)-teshik; o‘kcha-tovon; amurd (almurd)-nok; buz-muz.*

Xorazm shevasida bu so‘zlar bugun ham aynan shu ma’noda ishlatiladi. Ko‘kilamoq-rashk qilmok; yozilamoq-yozilmoq; bag‘irsoq-rahmdil, oq ko‘ngil; isurmoq-mast, kayf. Bu so‘zlar ham hozir ko‘pgina shevalarda ishlatiladi. Shuningdek, o‘z mazmun – mohiyatidan biroz uzoqlashgan so‘zlar ham mavjud. “Bodiya” so‘zi asarda-cho‘l, dasht, sahro, biyobon ma’nosida ishlatilgan. Xorazmda palov yeydigan maxsus idishni *bodiya* deb yuritishadi. Asarda “*arig*” so‘zi pokiza, sof ma’nosida ishlatilgan. Xorazmda bugun bu so‘z ozg‘in, nimjon

ma'nosida ishlatiladi. Asarda "yobon" so'zi cho'l biyobon ma'nosida ishlatilgan. Xorazmchada bugun u yovon deb ishlatiladi. Cho'l, biyobondan tashqari qishloq ma'nosini ham anglatadi.

Ajdodlarimizning ilm sohasidagi ildizlari chuqur ekanligini anglatadigan so'zlar ham mavjud. *Aqron-sayyora; baqir-mis; Saqit – Zuhra, Venera; tuch-bronza.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, Rabg'uziyning payg'ambarlar haqidagi qissalari ham badiiylik, ham til nuqtai nazaridan katta e'tiborga loyiq yozma yodgorlikdir. Unda qadimiy qadriyatlarimiz ila sharq falsafasi uyg'unlashib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek adabiyoti tarixi., T., Habib Abdunazar 1977y.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Ra'no Zaripova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan journalist, Nodira Sa'dullayeva, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti o'qituvchisi "Qisasi Rabg'uziy" asarining o'ziga xos xususiyatlari